

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI,
VLADIKAVKAZ ILMIY MARKAZI**

TOTIYEVA JANNA DMITRIYEVNA

**IRSIY ELASTIKLIK NAZARIYASINING
DINAMIK TENGLAMALARI UCHUN TESKARI MASALALARNING
GLOBAL YECHILISHI**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

БҲХОРО – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации****Content of the of Doctoral (DSc) Dissertation Abstract****Totiyeva Janna Dmitriyevna**

Irsiy elastiklik nazariyasining dinamik tenglamalar uchun taskari
masalalarining global yechilishi 3

Тотиева Жанна Дмитриевна

Глобальная разрешимость обратных задач для динамических уравнений
наследственной теории упругости..... 29

Totiyeva Zhanna Dmitriyevna

Global solvability of inverse problems for dynamic equations of memory type
of the elasticity theory..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI,
VLADIKAVKAZ ILMIY MARKAZI**

TOTIYEVA JANNA DMITRIYEVNA

**IRSIY ELASTIKLIK NAZARIYASINING
DINAMIK TENGLAMALARI UCHUN TESKARI MASALALARNING
GLOBAL YECHILISHI**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

БҮХОРО – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/FM218 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida va RFA Vladikavkaz ilmiy markazida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Durdiyev Durdimurod Qalandarovich fizika–matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ashurov Ravshan Rajabovich fizika–matematika fanlari doktori, professor Sabitov Kamil Basirovich fizika–matematika fanlari doktori, professor Fayozov Qudratillo Sadriddinovich fizika–matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Belgorod Davlat Milliy tadqiqot universiteti (Rossiya Federatsiyasi)

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 12 » sentabr soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871)- 207-91-40, e-mail: uzbmash@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (166-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871) 207-91-40)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 24 » avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil « 24 » avgustdagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A. Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko'plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda matematik fizikaning teskari masalalarini o'rganishga olib kelinadi. Ko'pgina muhitlar (materiallar) elastiklik nazariyasi tenglamalarida mavjud bo'lmagan deformatsiya jarayonlarining tezlik va vaqtga bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyat xotira deb ataladi. Xotiraga ega muhit elastik jismlar kabi energiyani saqlash va qovishqoq xususiyatlarga ega muhit kabi tarqatish qobiliyatini o'zida birlashtiradi. Elektromagnit, akustik va elastik to'lqinlarning qovishqoq-elastik muhitda tarqalish jarayonini matematik usullardan foydalangan holda aniqroq o'rganish jarayonning xotirasini (oldingi tarixini) hisobga olishni talab qiladi. Matematik nuqtai nazardan, jarayonning o'tmishini hisobga olish, qaralayotgan elastiklik nazariyasining matematik modeliga xotiraga javob beruvchi yadroga ega bo'lgan o'rama ko'rinishdagi integral operatorini kiritish zarurligiga olib keladi. Muhitning o'tmishi yoki xotirasini amaliy o'rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda matematik fizikaning eng dolzarb muammolaridan biri materiallarning qovishqoq-elastiklik va termo qovishqoq-elastikligini hisobga olgan holda o'zini tutishini tahlil qilishdir. Qovishqoq-elastiklik differensial tenglamalar sistemalari, masalan, seysmik qidiruvda, seysmik to'lqinlar yordamida muhitning xususiyatlarini o'rganganda (teskari dinamik masalalar) paydo bo'ladi. Koeffitsiyentni topish bo'yicha teskari masalalarni yechish, shuningdek, to'lqin maydoni haqidagi ba'zi ma'lumotlardan integral operator yadrosini aniqlash masalalari geologik muhitning tuzilishi va xossalarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Chiziqli qovishqoq-elastiklik nazariyasi yetarlicha rivojlangan, ammo klassik reologik ta'sirlarni modellashtirish va bu jarayonlarga bevosita bog'liq bo'lgan qovishqoq-elastiklikning chiziqli differensial tenglamalarining ko'plab matematik xususiyatlari hali ham kam ma'lum, chiziqli nazariya imkoniyatlari to'liq ochilmagan, uning muvofiqlik sohasi yetarli darajada aniq va ochiq belgilanmagan, kompyuterda modellashtirish esa ko'pincha zaruriy asossiz bo'lib qolmoqda. Bularning barchasi jarayon o'tmishi (xotira)ni hisobga olish uchun mas'ul bo'lgan integral operatorning yadrosini tajriba natijasida aniqlab bo'lmasligi (yadroni bevosita o'lchash mumkin emas), uni faqat nazariy jihatdan aniqlash mumkinligidadir. Qovishqoq-elastik muhitlarda to'lqin tarqalish jarayonlari nazariyasining teskari masalalarini yechish usullarini ishlab chiqish zarurati dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekistonda differensial tenglamalar va matematik fizikaning fundamental fanlarda ilmiy va amaliy tadbiqlariga ega bo'lgan zamonaviy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, teskari va nokorrekt qo'yilgan masalalarni o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunga qadar matematik fizikaning to'g'ri va teskari masalalarini o'rganishda sezilarli natijalarga erishilgan. Matematika fanlarining ustuvor yo'nalishlari, xususan, algebra va funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi

bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish V.I. Romanovskiy¹ nomidagi Matematika Instituti faoliyatidagi asosiy vazifa va yo'nalish hisoblanadi. Mazkur qarorni hayotga tatbiq etishda matematik fizikaning to'g'ri va teskari masalalari bo'yicha tadqiqotlarni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Zilzila kuchining oshishi bilan muhit elastik emas, balki qovishqoq-elastik jism sifatida o'zini tutishi aniqlangan. Shuning uchun ko'p o'lchamli teskari masalalarning global yechilishini o'rganish juda dolzarb muammodir. Ushbu ishga xos bo'lgan asosiy xususiyat to'liq tarqatuvchi fizik manbalarning nuqta yoki qaralayotgan muhitning fazoviy soha chegarasi atrofida joylashgan oniy manbalardan matematik modellarda foydalanish hisoblanadi. Bu o'rganilayotgan masalalarning amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4979-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi "Matematik ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli va 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Integro-differensial tenglamalardan yadrolarni aniqlashning teskari masalalarini ilmiy tadqiq qilish va ularni amaliyotga qo'llash jahonning yirik ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlari, jumladan: Tallin texnologiya universiteti (Estoniya), S.L. Sobolev nomidagi Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo'limi (Rossiya) Matematika instituti, Frayberg texnika universiteti (Germaniya), Klagenfurt Alp-Adriatika universiteti (Avstriya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), Radboud universiteti (Niderlandiya), Hindistonning Texnologiya Roorkee instituti, Kardiff universiteti (Birlashgan Qirollik), Aberystwyth universiteti (Birlashgan Qirollik), Politecnico di Milano (Italiya), Universite di Bolonya (Italiya), Vichita davlat universiteti (AQSh), Alyaska universiteti (AQSh) va boshqa joylarda olib borilmoqda.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalar uchun teskari masalalar bo'yicha bir qator natijalar qo'lga kiritildi, xususan, quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: chegaralangan sohalarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 292-sonli qarori

taqsimlangan manbalardan to'liq tarqalish jarayonlari uchun qovishqoq-elastiklik va termo qovishqoq-elastiklik tenglamalarining yadrolarini aniqlash masalalari hal etildi (Tallin texnologiya universiteti); yarim fazoda jamlangan manbali to'liqlar uchun tenglamalar koeffitsiyentlari va maxsus ko'rinishga ega ko'p o'lchovli yadrolarni aniqlash bo'yicha teskari masalalar hal qilindi (Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo'limi S.L.Sobolev nomidagi Matematika instituti); o'zgarmas Lame va o'zgaruvchan matritsali koeffitsiyentlar qatnashgan statsionar elastiklik tenglamalari sistemasi uchun tarqalgan to'liqdan foydalanib yadro va koeffitsiyentlarni aniqlashning teskari masalalari o'rganildi (Vichita davlat universiteti); Hilbert fazolarida relaksatsiya yadrosi spektri tahlil qilingan (Kardiff universiteti); uch o'lchovli muhitda chiziqli qovishqoq-elastiklik yadrosini aniqlashning teskari masalasini sonli tadqiq qilish amalga oshirildi (Myunxen texnika universiteti); Kelvin-Voigt suyuqliklari cheklangan sohalarida harakat qilganda paydo bo'ladigan yopishqoq elastik suyuqlik oqimining uch o'lchovli tenglamalari uchun yadroni aniqlash teskari masalasining lokal yechilishi o'rganildi (Roorki Hindiston texnologiya instituti); ikki chegaraviy o'lchovidan foydalanib, Abel yadrolarining chiziqli kombinatsiya bo'lgan relaksatsiya yadrosini aniqlashning teskari masalasi hal qilindi (Alyaska universiteti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Teskari masalalar bo'yicha birinchi nashrlar fizika (kvant sochilish nazariyasi, elektrodinamika, akustika), geofizika (elektr qidiruvi, seysmik, magnit qidiruv), astronomiya va boshqalar bilan bog'liq edi. Buni to'g'ri masalalarda berilganlar deb hisoblangan muhitning xossalari amalda ko'pincha noma'lum bo'lishi bilan izohlash mumkin. Matematik jihatdan bu shuni anglatadiki, tenglamalarning koeffitsiyentlarini, boshlang'ich yoki chegaraviy shartlarni, o'rganilayotgan jarayon sodir bo'lgan sohaning joylashishini, chegaralarini va boshqa xususiyatlarini aniqlash kerak bo'ladi. Shu bilan birga, to'g'ri masalaning yechimi, odatda, noma'lum bo'lib qolaveradi. Shuning uchun, teskari masalalarni qo'yish va tadqiq qilishda muhim jihat – bu to'g'ri masala yechimi haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishdir (o'lchashlar, masalan, soha ichidagi yoki uning chegarasidagi o'lchashlar, jarayonning spektral yoki kinematik xossalari, yoki “yakuniy kuzatishlar” va boshqalar).

Teskari masalalar nazariyasining muhim yo'nalishi – qidiruv geofizikasining teskari masalalaridir. Ular ushbu ish mavzusiga yaqin. Bu yo'nalishda A.S.Alekseyev va S.V. Goldinning birinchi nashrlarini eslatib o'tish kerak. Xususan, A.S. Alekseyev birinchi marta yarim fazoda izotrop elastiklik tenglamalari sistemasi uchun zichlikni aniqlashning bir o'lchamli teskari masalasini o'rgandi. Ushbu yo'nalishni rivojlantirib, M.M. Lavrentyev va V.G. Romanov giperbolik tipdagi tenglamalar uchun turli xil teskari masalalarni o'rganish usullarini ishlab chiqdilar. Elastiklik nazariyasining koeffitsiyentli teskari masalalarining turli tadqiqotlari A.S.Blagoveshenskiy, V.G. Romanov, Ye.A. Volkovning asarlarida keltirilgan. Ushbu yo'nalish keyinchalik V.G. Yaxno, T.V. Buguyeva (Melnikova) larning ishlarida rivojlantirildi, xususan, izotrop va anizotrop elastiklik tenglamalari sistemasi uchun zichlik funksiyasini

aniqlashning ko'p o'lchamli masalalari yechimining mavjudligi, yagonaligi va turg'unligi teoremlari isbotlangan. K.B.Sabitov ishlarida matematik fizika tenglamalari uchun teskari masalalarni yechishning yangi usullari keltirilgan, aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar o'rganilgan.

Giperbolik tipdagi integro-differensial tenglamalardan integral operatorning yadrosini (vaqt va fazoviy o'zgaruvchilariga bog'liq) aniqlash masalalari o'tgan asrning 80-yillari oxirida paydo bo'lgan teskari masalalar nazariyasida yosh, tez sur'atlarda rivojlanayotgan yo'nalishdir. Ushbu sohadagi birinchi nashrlar M.Grasselli, D.Q. Durdiyev, S.I. Kabanixin, A. Lorensi, Ye.Paparoni, Ye. Sinestrari kabi olimlarning nomlari bilan bog'liq. Giperbolik tenglamalar uchun xotira funksiyasini aniqlash teskari masalalari A.L. Buxgeym, D.Q. Durdiyev, V.G.Yaxnolarning ishlarida keyinchalik o'z aksini topdi. A.L. Buxgeym, D.Q. Durdiyev, V.G. Romanov, J.Sh. Safarov, Y.Yannolarning ishlarida faqat vaqt o'zgaruvchisiga bog'liq bo'lgan yadroni aniqlash masalalari ko'rib chiqilgan (bir o'lchovli teskari masala). Masala noma'lum funksiyalarga nisbatan Volterra tipidagi integral tenglamalarni yechishga keltirilgan. Keyinchlik, ushbu tenglamalarga tegishli funksional fazolarda siqib akslantirish prinsipi (Banax teoremasi) qo'llanilgan. Mavjudlik, yagonalik teoremlari, shuningdek yechimning berilgan funksiyalarga uzluksiz bog'liqlik baholari olingan. Masalan, D.Q. Durdiyev, J.Sh. Safarovlarning ishlarida chekli sohada qovishqoq-elastiklik tenglamasi uchun bir o'lchovli yadroni aniqlashning teskari masalasi o'rganilgan, integro-differensial akustika tenglamasi uchun yadroni aniqlash teskari masalasining lokal bir qiymatli yechiluvchanligi tadqiq qilingan. Shu bilan birga bir jinsli anizotrop muhit uchun qovishqoq-elastiklik sistemasi matritsaviy yadrosini aniqlash masalasi korrekt qo'yilgan va yechilgan. To'g'ri masala R^3 fazoda umumlashgan Koshi masalasidan iborat.

V.G. Romanovning ishlarida yadroning fazoviy qismini va qovishqoq-elastiklik va elektrodinamikaning integro-differensial tenglamalari uchun ko'effitsiyentlarni aniqlash bo'yicha ko'p o'lchamli teskari masalalar o'rganilgan. D.Q. Durdiyevning monografiyasida ko'p o'lchamli yadrolarning maxsus sinfi uchun (vaqt o'zgaruvchisi bo'yicha silliq va fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha analitik) Banax fazolari shkalasi usuli asosida bir qiymatli yechiluvchanlik teoremlari olingan. Analitik funksiyalarning Banax fazolari shkalasi usulini ko'p o'lchovli teskari masalalarni yechishda qo'llash g'oyasi V.G. Romanovga tegishli. D.Q. Durdiyevning monografiyasi so'nggi yillardagi ta'sirdan keyingi muhitlar uchun teskari masalalarni tadqiq qilish sohasidagi fundamental ishlardan biridir. Unda muhitning ichki xarakteristikalarini ifodalashda vujudga keladigan giperbolik integro-differensial tenglamalar uchun bir va ko'p o'lchamli teskari dinamik masalalarning korrektiligi bo'yicha bir qator tadqiqot natijalari keltirilgan. Qo'yilgan teskari masalalarning bir qiymatli yechilishi haqidagi teoremlar isbotlangan va ushbu masalalar yechimlarining berilganlarga uzluksiz bog'liqlik baholari olingan. A.L. Karchevskiy, Z.R. Bozorov, U.D. Durdiyevlarning ishlarida irsiy elastiklik nazariyasining dinamik tenglamalari uchun teskari masalalar sonli

tadqiqotlari keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi M-02.2018 "Matematik fizikaning teskari masalalari" (2020-2022), Rossiya Fanlar akademiyasi Vladikavkaz ilmiy markazi Janubiy matematika institutining "Tutash muhitlar mexanikasi muammolarida matematik modellashirish va singular integral tenglamalarni yechish usullarini takomillashtirish" (2015-2017, ro'yxatga olish №0120.085080) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida, shuningdek, "Geofizika va muhandislik masalalarida gidrodinamika va issiqlik va massa almashinuvi masalalarini matematik modellashirish va sonli yechish" (2018 yil, AAAA-F18-118032690251-2); "Geofizika va muhandislik masalalarida tutash muhitlar mexanikasi hamda issiqlik va massa almashinuvi masalalarini matematik modellashirish va sonli yechish" (2019-2021, registratsiya raqami AAAA-A19-119032590069-3) davlat topshiriqlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi konsentratsiyalangan tebranish manbalariga ega bo'lgan elastiklikning irsiy nazariyasi dinamik tenglamalari uchun bir va ko'p o'lchovli teskari masalalarning global yechilishini qurish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, qo'yilgan teskari masalalar turg'unlik baholarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

vertikal bir jinsli bo'lmagan muhitdagi qovishqoq-elastiklik tenglamalari sistemasi uchun bir o'lchovli skalyar va matritsa yadrosini aniqlash muammosining global bir qiymatli yechilishi va turg'unligini o'rganish;

to'g'ri masala yechimi haqidagi ba'zi ma'lumotlardan foydalangan holda, yo'naltirilgan portlash tipidagi manbaga ega vertikal bir jinsli bo'lmagan izotrop muhitdagi qovishqoq-elastiklik tenglamalari sistemasi uchun matritsa yadrosini aniqlash masalasining global bir qiymatli yechilishi shartlarini olish;

berilgan zichlik funksiyalari va Lamé parametrlari hamda issiqlik kengayish koeffitsiyenti uchun termoelastiklik tenglamalar sistemasining bir o'lchovli yadrosini aniqlash masalasining global bir qiymatli yechilishi va turg'unligini tadqiq qilish;

termoelastiklik tenglamasi uchun yarim fazo chegarasida berilgan siljish maydonidan temperaturaga bog'liq bo'lgan issiqlik kengayish koeffitsiyentini aniqlash masalasining yagona yechuvchanligi va turg'unligi masalasini o'rganish.

vertikal bir jinsli bo'lmagan muhitda elastiklikning irsiy nazariyasi dinamik tenglamalari sistemasi uchun fazoviy o'zgaruvchilari bo'yicha analitik va vaqt bo'yicha silliq ko'p o'lchovli yadroni aniqlash masalasining global yagona yechilishi va turg'unligini tadqiq qilish;

ma'lum bo'lgan matritsali xotira yadroli anizotropik qovishqoq-elastiklik nazariyasida koeffitsiyentni topish teskari masalalari uchun yechiluvchanlik shartlarini aniqlash, teskari masalalar yechimlari uchun turg'unlik baholarini olish;

izotropik yopishqoq-elastiklik tenglamalar sistemasi uchun ko'p o'lchovli yadroni aniqlash linerizatsiyalangan teskari masalasining yagona yechilishi va turg'unligi masalasini qo'shimcha shart sifatida chiziqlashtirilgan to'g'ri

masalaning yechimini yarim fazoning chegarasida Furrye almashtirishi (siljish vektor funksiyasining birinchi komponentasi) yordamida berilganda o'rganish;

kuchsiz gorizontali bir jinsli bo'lmagan izotrop muhitda qovishqoq-elastiklik tenglamasi uchun ko'ndalang to'liqlar yadrosi va tarqalish tezligini bir vaqtning o'zida aniqlash ikki o'lchovli muammosining global bir qiymatli yechilishini o'rganish.

Tadqiqot obyekti irsiy elastiklik nazariyasi dinamik tenglamalari uchun boshlang'ich chegaraviy masalalar va ikkinchi turdagi noxiziqli Volterra integral tenglamalaridan iborat.

Tadqiqot predmeti giperbolik integro-differensial tenglamalar nazariyasi va noxiziqli integral tenglamalar, matematik fizika tenglamalari nazariyasi, operatorli tenglamalar nazariyasidan iborat.

Tadqiqot usullari. Masalalarni o'rganishda umumlashgan funksiyalar nazariyasi usullari, integral tenglamalar usuli, xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni yechish usullari, funksional tahlil usullari, operatorlar nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

konsentratsiyalangan tebranish manbalari hamda yo'naltirilgan portlash manbali, yarim fazodagi izotrop qovishqoq-elastiklik va termoelastiklik tenglamalari sistemasini uchun bir o'lchovli skalyar va matritsali yadrolarni aniqlashning teskari masalalarini hal qilishning global bir qiymatli yechuvchanlik shartlari va turg'unlik baholalari olingan, hamda qidirilayotgan yadroning rezolventasiga o'tishga asoslangan yondashuv ishlab chiqilib, yadro va muhitning integral tenglamalar sistemasidan yadro, rezolventa va siljish funksiyasini bir vaqtning o'zida aniqlash masalalari hal qilingan;

fazoviy o'zgaruvchiga nisbatan analitik va vaqt bo'yicha uzluksiz bo'lgan funksiyalar sinfinda xotirali dinamik tenglamalar yadrolarini aniqlash ko'p o'lchovli masalalarining global bir qiymatli yechilishi isbotlangan;

yadroning birinchi asimptotikasini va kuchsiz gorizontali bir jinsli bo'lmagan muhitda ko'ndalang elastik to'liqlarning tarqalish tezligini bir vaqtning o'zida aniqlash kvazi ikki o'lchovli muammosining global yagona yechilishi uchun shartlar olingan;

yadroni aniqlash ko'p o'lchovli chiziqli masalasining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan hamda turg'unlik baholari olingan;

ma'lum matritsa xotira yadroli anizotrop qovishqoq-elastiklik tenglamalari sistemasida elastiklik modullarini aniqlash bir o'lchovli masalasining bir qiymatli yechilishi va turg'unligi uchun shartlar olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiyada olingan natijalar nazariy xarakterga ega. Dissertatsiya ishining materiali, birinchi navbatda, fundamental tadqiqot bo'lib, aniq hisoblash algoritmlarini shakllantirish va amaliy geofizika, xususan, seysmik qidiruv bilan bog'liq dolzarb amaliy muammolarni hal qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalar va xulosalarning ishonchliligi qat'iy matematik usullardan foydalanish, asosiy qoidalar va

teoremlarni isbotlashda mantiqiy fikrlash ketma-ketligi, matematik tahlil va tadqiqot muammosi bo'yicha fundamental ishlarga tayanish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar elastiklikning irsiy nazariyasi dinamik tenglamalari uchun teskari masalalar nazariyasini rivojlantiradi, ko'p o'lchovli teskari masalalarni o'rganishga yordam beradi. Ulardan matematik fizika tenglamalari uchun teskari va nokorrekt qo'yilgan masalalar nazariyasi bo'yicha keyingi tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan matematik modellashtirish va yopishqoq hamda termoelastik muhitlar xossalarini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Elastiklikning irsiy nazariyasi dinamik tenglamalari uchun teskari masalalarning global yechilishiga oid olingan natijalar asosida:

ma'lum matritsa xotira yadroli anizotrop qovishqoq-elastiklik tenglamalari sistemasida elastiklik modullarini aniqlash bir o'lchovli masalasining bir qiymatli yechilishidan "Tarmoqlar, grafiklar va chiziqli guruhlar" mavzusidagi xorijiy kompleks tadqiqotda giperbolik tenglamalar uchun teskari masalalarni yechishda foydalanilgan (Shimoliy Osetiya davlat universiteti Federal davlat byudjeti ta'lim muassasasining, 2023 yil 29 maydagi 1493-sonli ma'lumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijaning qo'llanishi giperbolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun ikki o'lchamli teskari masalani va gorizontaal bir jinsli bo'lmagan qovishqoq-elastik muhitlar uchun teskari masalalarni sonli usullarda yechish imkonini bergan;

fazoviy o'zgaruvchiga nisbatan analitik va vaqt bo'yicha uzluksiz bo'lgan funksiyalar sinfida xotirali dinamik tenglamalar yadrolarini aniqlash ko'p o'lchovli masalalarining global bir qiymatli yechilishidan OT-F4-02 raqamli "Matematik fizikaning cheksiz holatlar to'plamiga ega modellari termodinamikasi" mavzusidagi fundamental loyihada ko'p o'lchovli teskari masalalarning yagona global yechilishda foydalanilgan (Buxoro Davlat universiteti 2023 yil 02 iyundagi 04/01/1344-son ma'lumotomasi). Ilmiy natijalarni qo'llanishi bir vaqtning o'zida kvazi ikki o'lchovli masala yadrosining birinchi asimptotikasini aniqlash va ularni global yechish uchun shartlarni olish, kuchsiz gorizontaal bir jinsli bo'lmagan muhitda ko'ndalang elastik to'lqinlarning tarqalish tezligini aniqlash, ma'lum matritsa xotira yadrosi bilan anizotropik qovishqoqlik tenglamalari sistemada elastik modullarni aniqlash bir o'lchovli masalasining yagona yechilishi va turg'unligi uchun shartlarni olish imkonini bergan.

yarim fazoda o'zgaruvchan koeffitsiyentli qovishqoq-elastiklik tenglamasi uchun yadroni aniqlash teskari masalalarini chiziqli bo'lmagan integral tenglamalar sistemasiga olib kelish usulidan chet el ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalarida foydalanilgan (Mathematical Notes, 2015, 97(6), 867–877; Theoretical and Mathematical Physics, 2018, 195(3), 491-506; Journal of Siberian Federal University. Mathematics & Physics, 2018, 11(6), 753-763). Ushbu ishlab chiqilgan usulni qo'llash akustika integro-differensial tenglamasi va g'ovakli

muhitda qovishqoq-elastiklik tenglamasi uchun yadrolarni aniqlash teskari masalalarini global yechiluvchanligini olish imkonin berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 12 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 42 ta ilmiy ish chop etilgan: 22 ta maqola WOS/Scopus ma'lumotlar bazalarida indekslangan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 1 ta monografiya (Springer Nature); xususan 16 ta maqola Q1-Q2 kvartiliga ega ilmiy jurnallarda, 19 ta ish konferensiya materiallarida.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 190 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda muhitning ta'sirdan keyingi holatini hisobga oluvchi o'rama tipidagi integral operatorlarning yadrolarini aniqlashning teskari masalalari ko'rib chiqilgan. Berilgan masalani noma'lum funksiyalarga nisbatan Volterra tipidagi chiziqli bo'lmagan integral tenglamalarni yechishga olib kelish usuli ishlab chiqilgan. Keyinchalik bu tenglamalarga mos funksional fazolarda siqib akslantirish prinsipi (Banach teoremasi) qo'llanilgan. Mavjudlik va yagonalik teoremlari, shuningdek, yechimning berilgan funksiyalarga uzluksiz bog'liqligi baholari olingan.

Birinchi paragrafda muhit chegarasida jamlangan to'liq tarqatish manbali qovishqoq-elastiklik tenglamalari sistemasi yadrosini aniqlashning bir o'lchovli masalasining global yagona yechilishi o'rganilgan.

Berilgan $x = (x_1, x_2, x_3) \in \mathbb{R}^3, t \in \mathbb{R}, x_3 > 0$ sohada integro-differensial tenglamalar sistemasini

$$\rho \frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2} = \sum_{j=1}^3 \frac{\partial T_{ij}}{\partial x_j}, i = 1, 2, 3, \quad (1)$$

quyidagi boshlang'ich va chegaraviy

$$u_{it < 0} \equiv 0, \quad (2)$$

$$T_{3j_{x_3=+0}} = -\delta_{1j} \delta'(t)/2, j = 1, 2, 3, \quad (3)$$

shartlar bilan qaraymiz, bu yerda $u(x, t) = (u_1(x, t), u_2(x, t), u_3(x, t))$ –

ko‘chish vektori, $\delta'(t)$ – Dirakning delta funksiyasi hosilasi; δ_{ij} – Kroniker simvoli; T_{ij} – kuchlanish tenzori:

$$T_{ij}(x, t) = \sigma_{ij}[u](x, t) + \int_0^t k(t - \tau) \sigma_{ij}[u](x, \tau) d\tau, \quad (4)$$

$$\sigma_{ij}[u](x, t) = \mu \left(\frac{\partial u_i}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j}{\partial x_i} \right) + \delta_{ij} \lambda \operatorname{div} u. \quad (5)$$

$\rho = \rho(x_3), \mu = \mu(x_3), \lambda = \lambda(x_3)$ funksiyalar bir o‘zgaruvchili deb faraz qilinadi, shu bilan birga ular $\rho(x_3) \geq m > 0, \mu(x_3) \geq m > 0, \lambda(x_3) \geq m > 0$ shartlarni qanoatlantiradi, bunda $\rho'(+0) = \mu'(+0) = \lambda'(+0) = 0$.

Qo‘yilgan shartlarga ko‘ra (1)-(3) boshlang‘ich-chegaraviy masalada qidirilayotgan $u(x, t)$ ko‘chishning vektor funksiyasi x_1, x_2 o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lmaydi.

Teskari masala (1)–(5) masala yechimi haqidagi qo‘shimcha

$$u_1(x_3, t)_{x_3=+0} = g(t), t > 0, \quad (6)$$

shartga asoslanib (4) formula orqali (1) tenglamaga kiruvchi $k(t), t > 0$, yadroni aniqlashdan iborat, bu yerda $g(t)$ – berilgan funksiya.

y o‘zgaruvchini quyidagi formula yordamida kiritamiz:

$$y = \psi(x_3) := \int_0^{x_3} \frac{d\xi}{c(\xi)}, c(x_3) := \sqrt{\frac{\mu(x_3)}{\rho(x_3)}}.$$

$\psi^{-1}(y)$ bilan $\psi(x_3)$ ga teskari funksiyani belgilaymiz.

$T^* := 2 \int_0^\infty \sqrt{\frac{\rho(\xi)}{\mu(\xi)}} d\xi$ bo‘lsin. $0 < T < T^*$ oraliqdagi ixtiyoriy T uchun $\psi^{-1}(T/2)$ kattalikni aniqlaymiz.

Quyida teskari masala global bir qiymatli yechiluvchanligi va turg‘unligi haqidagi teoremlar keltirilgan.

1-teorema. $g(t)$ funksiya

$$g(t) = \frac{a}{2} \delta(t) + \theta(t) g_0(t), a = [\mu(+0)\rho(+0)]^{-1/2}$$

ko‘rinishda bo‘lsin va $g_0 \in C^2[0, T]$, $\theta(t)$ – Xevisayda funksiyasi. Bundan tashqari $(\rho, \mu) \in C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]$. U holda (1)-(6) teskari masala ixtiyoriy tayinlangan $0 < T < T^*$ larda yagona $k(t) \in C^2[0, T]$ yechimga ega.

Barcha $t \in [0, T]$ larda musbat fiksirlangan h_0 lar uchun $\|k(t)\|_{C^2[0, T]} \leq h_0$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi $k(t) \in C^2[0, T]$ funksiyalar to‘plamini $\Gamma(h_0)$ orqali belgilaymiz.

2-teorema. $k^1(t) \in \Gamma(h_0), k^2(t) \in \Gamma(h_0)$ mos ravishda

$$\{\rho^1(\psi^{-1}(y)), \mu^1(\psi^{-1}(y)), g_0^1(t)\},$$

$$\{\rho^2(\psi^{-1}(y)), \mu^2(\psi^{-1}(y)), g_0^2(t)\},$$

berilganlarga to‘g‘ri keluvchi (1)–(6) teskari masalaning yechimi bo‘lsin. U holda

shunday musbat

$$C = C(h_0, h_{00}, m, T),$$

$$h_{00} = \max \left\{ \|\rho^1(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(\frac{T}{2})]}, \|\mu^1(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(\frac{T}{2})]}, \|g_0^1(t)\|_{C^2[0, T]}, \right. \\ \left. \|\mu^2(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(\frac{T}{2})]}, \|\rho^2(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(\frac{T}{2})]}, \|g_0^2(t)\|_{C^2[0, T]} \right\},$$

son mavjudki, quyidagi turg'unlik bahosi o'rinli

$$\|k^1 - k^2\|_{C^2[0, T]} \leq \\ \leq C \left[\|\rho^1 - \rho^2\|_{C^3[0, \psi^{-1}(\frac{T}{2})]} + \|\mu^1 - \mu^2\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]} + \|g_0^1 - g_0^2\|_{C^2[0, T]} \right].$$

Ikkinchi paragrafda bu natija yarim fazo chegarasida jamlangan oniy tebranishlar manbali anizotropik qovishqoq-elastiklik sistemasining matritsali yadrosi aniqlash holatiga umumlashtiriladi. Neyman shartlari quyidagi ko'rinishda

$$T_{j3_{x_3=+0}} = \delta'(t)\delta(x_1), j = 1, 2, 3. \quad (3')$$

(4) kuchlanish tenzori quyidagicha:

$$T_{ij} = \sum_{n,l=1}^3 c_{ijnl} \left[S_{nl} + \int_0^t k_i(t-\tau) S_{nl}(x, \tau) d\tau \right], i, j = 1, 2, 3; \quad (7) \\ S_{nl} = \frac{1}{2} \left(\frac{\partial u_n}{\partial x_l} + \frac{\partial u_l}{\partial x_n} \right), n, l = 1, 2, 3;$$

$c_{ijnl} = c_{ijnl}(x)$ – elastiklik moduli, $k(t) = (k_1, k_2, k_3)(t)$ – muhit relaksatsiya funksiyasi, ega bo'lsin. Quyidagi ko'rinishdagi mustaqil elastik modullar matritsasi bilan anizotrop muhitni qaraymiz:

$$c_{\alpha\beta} = \begin{pmatrix} c_{11} & c_{12} & c_{12} & & & \\ c_{12} & c_{11} & c_{12} & & & \\ c_{12} & c_{12} & c_{11} & & & \\ & & & O_{(3 \times 3)} & & \\ & & & & c_{44} & 0 & 0 \\ & & & & 0 & c_{44} & 0 \\ & & & & 0 & 0 & c_{44} \end{pmatrix}. \quad (8)$$

$(c_{11}, c_{12}, c_{44}, \rho)$ vektor-funksiya $\Lambda(m)$ sinfga tegishli, bunda

$$\Lambda(m) = \{(c_{11}(x_3), c_{12}(x_3), c_{44}(x_3), \rho(x_3))\}:$$

$$c_{11} \geq m > 0, c_{44} \geq m > 0, c_{11} > c_{12}, c_{11} + 2c_{12} > 0, \rho \geq m > 0,$$

$$c'_{11}(+0) = 0, c'_{44}(+0) = 0, \rho'(x_3) = 0, c_{11}, c_{44}, \rho \in C^2.$$

Teskari masala: to'g'ri masala yechimi U vektor-funksiya uchun berilgan quyidagicha berilgan bo'lsin:

$$U_j(x_3, t, v)_{x_3=+0, v=+0} = g_j(t), t > 0, j = 1, 2, 3;$$

bu yerda $g_j(t)$ – berilgan funksiyalar, $U_j(x_3, t, v) = \int_{-\infty}^{\infty} u(x_1, x_3, t) \exp(-ivx_1) dx_1, j = 1, 2, 3$ qo'shimcha ma'lumotga asoslanib, (1) tenglikga (7) orqali kirgan $k(t) = \text{diag}(k_1, k_2, k_3)(t), t > 0$ yadroni topishdan iborat.

Faraz qilaylik, $a: = [c_{44}(+0)\rho(+0)]^{\frac{-1}{2}}, b: = [c_{11}(+0)\rho(+0)]^{\frac{-1}{2}}$ bo'lsin.

$$T^* := 2 \int_0^\infty \sqrt{\frac{\rho(\xi)}{c_{44}(\xi)}} d\xi; T^{**} := 2 \int_0^\infty \sqrt{\frac{\rho(\xi)}{c_{11}(\xi)}} d\xi.$$

$0 < T < \min \{T^*, T^{**}\}$ oraliqdan olingan T lar uchun $\psi_1^{-1}(T/2)$ va $\psi_2^{-1}(T/2)$ kattaliklarni aniqlaymiz.

3-teorema. $g_j(t)$ funksiya quyidagi ko'rinishda

$$g_j(t) = A_j \delta(t) + \theta(t) g_{0j}(t), A: = (a, a, b)$$

bo'lsin va $g_{0j}(t) \in C^2[0, T], j = 1, 2, 3; \theta(t) -$ Xevisayd funksiyasi. Bundan tashqari $(\rho, c_{44}) \in C^3[0, \psi_1^{-1}(\frac{T}{2})], c_{11} \in C^3[0, \psi_2^{-1}(\frac{T}{2})]$ bo'lsin. U holda ixtiyoriy tayin $0 < T < \min \{T^*, T^{**}\}$ lar uchun teskari masalaning yagona $k(t) = \text{diag}(k, k_2, k_3)(t) \in C^2[0, T]$ yechimi mavjud.

4-teorema. $k(t) = \text{diag}(k_1, k_2, k_3)(t), k^*(t) = \text{diag}(k_1^*, k_2^*, k_3^*)(t)$, $k_j(t) \in \Gamma(h_{0j}), k_j^*(t) \in \Gamma(h_{0j}), j = 1, 2, 3$ – mos ravishda quyidagi berilganlar uchun

$$\begin{aligned} & \{\rho(\psi_1^{-1}(y)), c_{44}(\psi_1^{-1}(y)), c_{11}(\psi_2^{-1}(z)), g_{0j}(t)\}, \\ & \{\rho^*(\psi_1^{-1}(y)), c_{44}^*(\psi_1^{-1}(y)), c_{11}^*(\psi_2^{-1}(z)), g_{0j}^*(t)\} \end{aligned}$$

teskari masalaning yechimi bo'lsin. U holda shunday musbat $C = C(m, h_0, h_{00}, T)$,

$$\begin{aligned} h_0 = \max\{h_{01}, h_{02}, h_{03}\}, h_{00} = \max\{ & \|\rho\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]}, \|c_{44}\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]}, \\ & \|c_{11}\|_{C^3[0, \psi_2^{-1}(T/2)]}, \|g_{0j}(t)\|_{C^2[0, T]}, \|\rho^*\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]}, \|c_{44}^*\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]}, \\ & \|c_{11}^*\|_{C^3[0, \psi_2^{-1}(T/2)]}, \|g_{0j}^*\} \text{ soni topiladiki, quyidagi turg'unlik bahosi o'rinli:} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & \sum_{j=1}^3 \|k_j - k_j^*\|_{C^2[0, T]} \leq C \left[\|\rho - \rho^*\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]} + \|c_{44} - c_{44}^*\|_{C^3[0, \psi_1^{-1}(T/2)]} \right. \\ & \left. + \|c_{11} - c_{11}^*\|_{C^3[0, \psi_2^{-1}(T/2)]} + \sum_{j=1}^3 \|g_{0j} - g_{0j}^*\|_{C^2[0, T]} \right]. \end{aligned}$$

Uchinchi paragrafda yo'naltirilgan portlash tipidagi manbali izotrop quvishqoq-elastiklik sistemasidan matritsa ko'rinishidagi yadroni aniqlash teskari masalasi qaralgan. Teskari masalaning global bir qiymatli yechiluvchanligi va turg'unligi haqidagi teoremlar isbotlangan. (1) tenglama biroz boshqa ko'rinishda

$$\rho(x_3) \frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2} = \sum_{j=1}^3 \frac{\partial T_{ij}}{\partial x_j} + F_i(x, t), i = 1, 2, 3; \quad (9)$$

va (3) shart bir jinsli deb qaraladi:

$$T_{3j}|_{x_3=+0} = 0, j = 1, 2, 3; \quad (10)$$

bu yerda

$$T_{ij}(x, t) = \sigma_{ij}[u](x, t) + \int_0^t k_i(t - \tau) \sigma_{ij}[u](x, \tau) d\tau, \quad (11)$$

$$\begin{pmatrix} F_1(x, t) \\ F_2(x, t) \\ F_3(x, t) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix} \nabla \delta(x) \delta(t).$$

Faraz qilaylik $k_3(t) \equiv k_2(t)$ va

$$\begin{aligned} \tilde{v}_1(x_3, t) &= \frac{\partial \tilde{u}_1}{\partial v_2} \big|_{v_1=v_2=0}, \quad \tilde{v}_2(x_3, t) = \frac{\partial \tilde{u}_2}{\partial v_1} \big|_{v_1=v_2=0}, \\ \tilde{v}_3(x_3, t) &= \frac{\partial^2 \tilde{u}_3}{\partial v_1 \partial v_2} \big|_{v_1=v_2=0}, \end{aligned}$$

$\tilde{u}_j(v_1, v_2, x_3, t, v) = \iint_{\mathbb{R}^2} u(x_1, x_2, x_3, t) \exp(-i(v_1 x_1 + v_2 x_2)) dx_1 dx_2$ bo'lsin.

Teskari masala: (2), (9)–(11) sistema yechimi uchun berilgan

$$\tilde{v}_j(+0, t) = g_j(t), t > 0,$$

(bu yerda $g_j(t), j = 1, 2$ – berilgan funksiyalar) qo'shimcha ma'lumotga asoslanib, (9) tenglikka (11) orqali kirgan $k(t) = \text{diag}(k_1, k_2, k_3)(t), t > 0$ yadroni topishdan iborat

5-teorema. $g(t) \in C^3[0, T]$, $(\rho, \mu) \in C^3[0, \psi_1^{-1}(T)]$ bo'lsin. U holda ixtiyoriy tayinlangan $0 < T < T^*$ lar uchun teskari masalaning yagona $\{k_1(t), k_2(t)\} \in C^2[0, T]$ yechimi mavjud.

6-teorema. $k^1(t) \in \Gamma(h_0), k^2(t) \in \Gamma(h_0)$ – mos ravishda

$$\begin{aligned} &\{\rho^1(\psi^{-1}(y)), \mu^1(\psi^{-1}(y)), g^1(t)\}, \\ &\{\rho^2(\psi^{-1}(y)), \mu^2(\psi^{-1}(y)), g^2(t)\}, \end{aligned}$$

berilganlar uchun teskari masalaning yechimi bo'lsin. U holda musbat shunday

$$C = C(h_0, h_{00}, T),$$

$$\begin{aligned} h_{00} &= \max\{\|\rho^1(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]}, \|\mu^1(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]}, \|g^1(t)\|_{C^3[0, T]}, \\ &\|\rho^2(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]}, \|\mu^2(y)\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]}, \|g^2(t)\|_{C^3[0, T]}\}, \end{aligned}$$

soni topiladiki quyidagi

$$\begin{aligned} &\|k^1 - k^2\|_{C^2[0, T]} \leq \\ &\leq C[\|\rho^1 - \rho^2\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]} + \|\mu^1 - \mu^2\|_{C^3[0, \psi^{-1}(T/2)]} + \|g^1 - g^2\|_{C^3[0, T]}] \end{aligned}$$

turg'unlik bahosi o'rinli.

Ikkinchi bob termoqovushqoqlik sistemasi uchun teskari masalalarning bir qiymatli yechiluvchanligi va turg'unligiga bag'ishlangan.

Ushbu **bobning birinchi paragrafida** bog'lanmagan termoelastik-quvishqoqlikning matematik modeli uchun to'g'ri masalaning qo'yilishi keltirilgan, termoelastik muhit uchun teskari masalalar bo'yicha olingan natijalarning qisqacha sharhi berilgan.

Ikkinchi paragrafda (1) tenglama, (2) boshlang'ich shart uchun dinamik bog'lanmagan termoelastik-quvishqoqlik tenglamalari sistemasiga kirgan yadroni aniqlash muammosining global yagona yechiluvchanligi masalasi quyida keltirilgan termoelastik-quvishqoqlik tengliklari yordamida tadqiq qilingan:

$$\frac{\partial H}{\partial t} = k \Delta H, \quad (12)$$

$$H_{t < 0} \equiv 0, \quad (13)$$

$$T_{3j}|_{x_3=+0} = \delta_{3j}\delta'(t), j = 1, 2, 3, \quad (14)$$

$$\left(\frac{\partial H}{\partial x_3} - \gamma H \right) \Big|_{x_3=+0} = -\gamma(\tilde{T}_1 - \tilde{T}_0)\theta_1(t), \quad (15)$$

bu yerda $H(x, t)$ – harorat orttirmasi, $\Delta - x_1, x_2, x_3$ o‘zgaruvchilar bo‘yicha Laplas operatori; $\tilde{T}_1, \tilde{T}_0, \gamma$ – o‘zgarmaslar, $\tilde{T}_1 > \tilde{T}_0$, $\gamma > 0$, k – harorat-o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $\theta_1(t) = t\theta(t)$, $\theta(t) = 1$, agar $t \geq 0$ va $\theta(t) = 0$, agar $t < 0$ bo‘lsa, T_{ij} – kuchlanish tenzori:

$$T_{ij}(x, t) = \sigma_{ij}[u](x, t) + \int_0^t h(t - \tau)\sigma_{ij}[u](x, \tau)d\tau, \quad (16)$$

$$\sigma_{ij}[u](x, t) = \mu \left(\frac{\partial u_i}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j}{\partial x_i} \right) + \delta_{ij} \left[\lambda \operatorname{div} u - (3\lambda + 2\mu) \int_0^{H(x,t)} \alpha(z)dz \right]. \quad (17)$$

α – muhitning termal kengayish koeffitsiyenti.

Teskari masala (1), (2), (12)–(17) to‘g‘ri masala yechimi haqidagi qo‘shimcha

$$u_3(x_3, t)_{x_3=+0} = g(t), t > 0, \quad (18)$$

($g(t)$ – berilgan funksiya) shartga asosanib (1)-(2) tengliklarga (16) yordamida kirgan $h(t)$, $t > 0$, yadroni aniqlashdan iborat.

Bu paragrafning asosiy natijalari teskari masalaning bir qiymatli yechiluvchanligi va turg‘unligi haqidagi quyidagi teoremlardan iborat.

7-teorema. $g(t)$ funksiya quyidagi

$$g(t) = -a(0)\delta(t) + \theta(t)g_0(t), a(0) = \{[\lambda(+0) + 2\mu(+0)]\rho(+0)\}^{\frac{-1}{2}}$$

ko‘rinishda bo‘lsin va $g_0(t) \in C^2[0, T]$, bundan tashqari, $(\rho, \lambda, \mu) \in C^3\left[0, \psi^{-1}\left(\frac{T}{2}\right)\right]$, $\alpha(z) \in C[0, \tilde{H}(T/2, T/2)]$ va $T, \tilde{T}_0, \tilde{T}_1, k, \gamma$ lar – fiksirlangan musbat sonlar bo‘lib $\tilde{T}_1 > \tilde{T}_0$ bo‘lsin. U holda ixtiyoriy fiksirlangan $0 < T < T^*$ lar uchun (1), (2), (12)–(18) teskari masalaning yagona yechimi mavjud.

8-teorema. $h^1(t) \in \Gamma(h_0^*)$, $h^2(t) \in \Gamma(h_0^*)$ – lar teskari masalaning mos ravishda

